

DIDAKTIK O‘YINLAR ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

 <https://doi.org/10.70728/tech.v3.i04.010>

*Dustmurodov G‘iyos Xusan o‘g‘li,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Samarqand kampusi “O‘zbek va rus
tillari” kafedrasida dotsent v.b*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili darslari samaradorligini oshirishda didaktik o‘yinlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘yin texnologiyalarining o‘quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi hamda til ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Didaktik o‘yinlar dars jarayoniga integratsiya qilinganda o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undashi, ularning motivatsiyasini kuchaytirishi hamda o‘quv materialini oson va samarali o‘zlashtirishga xizmat qilishi ilmiy asosda izohlanadi. Maqolada didaktik o‘yinlar asosida tashkil etilgan darslarning metodik jihatlari, ularni tanlash mezonlari va amaliy qo‘llash mexanizmlari tahlil etilgan. Natijada, o‘yin texnologiyalariga tayangan ta‘lim jarayoni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatini faollashtirishi hamda ona tili fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yin, boshlang‘ich ta‘lim, ona tili darsi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, nutq rivoji, kommunikativ kompetensiya, o‘quv motivatsiyasi, ta‘lim samaradorligi, pedagogik yondashuv.

Kirish. Zamonaviy ta‘lim tizimida boshlang‘ich ta‘lim bosqichi shaxsning intellektual va nutqiy rivojlanishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, ona tili darslari o‘quvchilarning fikrni aniq ifodalash, muloqotga kirishish, o‘qish va yozish kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi. Shu bois boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarni faol fikrlashga undaydigan hamda ularning qiziqishini oshiradigan metod va texnologiyalarni qo‘llash bugungi kun pedagogikasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ta‘lim jarayonining an‘anaviy shakllari ko‘pincha o‘quvchilarning faolligini to‘liq namoyon etishga yetarli imkon yaratmaydi. Natijada o‘quvchi dars jarayonida passiv tinglovchi sifatida qolib ketishi mumkin. Holbuki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta‘lim oluvchini o‘quv jarayonining markaziy subyekti sifatida ko‘rib, uning mustaqil fikrlashi, tahlil qilishi va o‘z bilimini amaliy faoliyatda qo‘llashiga e‘tibor qaratadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, darslarni interaktiv usullar asosida tashkil etish, xususan, didaktik o‘yinlardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatini faollashtirishda muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Didaktik o‘yinlar o‘quv materialini qiziqarli shaklda o‘zlashtirish imkonini beradigan pedagogik texnologiyalardan biri bo‘lib, ular orqali o‘quvchilarning tafakkuri,

nutqi va ijodiy faolligi uyg'un rivojlanadi. O'yin jarayonida bola nafaqat bilim oladi, balki mustaqil qaror qabul qilish, mantiqiy fikrlash, fikrini erkin ifodalash kabi ko'nikmalarni ham egallaydi. Shu sababli ona tili darslarida didaktik o'yinlardan maqsadli va tizimli foydalanish o'quvchilarning til birliklarini chuqurroq anglashiga, nutqiy faoliyatini rivojlantirishga hamda o'quv motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini samarali tashkil etish masalasi pedagogika va metodika fanida uzoq yillardan buyon ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos keladigan samarali didaktik vosita sifatida ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Jahon pedagogikasida o'yin faoliyatining shaxs rivojida o'rni chuqur ilmiy asoslangan. Xususan, rus psixologi L.S.Vygotskiy o'yin faoliyatini bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayonidagi muhim mexanizm sifatida izohlaydi. Uning fikricha, o'yin jarayonida bola o'z imkoniyatlaridan yuqori darajada faoliyat ko'rsatadi hamda yangi bilim va ko'nikmalarni osonroq egallaydi[1,47]. Shuningdek, J.Piaget bolalarning kognitiv rivojlanish nazariyasida o'yin faoliyati tafakkurning shakllanishida muhim bosqich ekanligini ta'kidlab, o'yin orqali bola atrof-muhitni anglash va bilimlarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lishini ilmiy asoslab bergan[2,82 – 83]. Didaktik o'yinlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda K.D.Ushinskiy ham o'yin elementlari o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda muhim pedagogik vosita ekanini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, o'yin orqali tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi va bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi[3, 26]. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham o'yin texnologiyalari interaktiv ta'lim usullarining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralib, o'quvchilarning kommunikativ va ijodiy faoliyatini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston pedagogika ilmidagi ham boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion metodlar va o'yin texnologiyalaridan foydalanish masalasi keng o'rganilgan. Jumladan, N.G'aybullayev ta'lim jarayonida faol metodlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda o'quv faoliyatini faollashtirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi[4, 76]. R.Mavlonova boshlang'ich ta'lim metodikasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida o'yin elementlari kichik yoshdagi o'quvchilarning bilish ehtiyojlarini qondirish va o'quv motivatsiyasini oshirishda muhim pedagogik omil ekanligini ko'rsatib beradi[5, 47]. Shuningdek, K. Qosimova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinib, dars jarayonida faol metodlardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar didaktik o'yinlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, ularning qiziqishlari va bilish faoliyatining o'ziga

xos jihatlarini hisobga olgan holda o‘yin asosidagi metodlarni qo‘llash ona tili darslarining mazmunini yanada boyitadi hamda o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, pedagogik kuzatuv, taqqoslash, tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Dars jarayonida didaktik o‘yinlar qo‘llanilganda o‘quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlash darajasi, so‘z boyligining kengayishi hamda o‘quv motivatsiyasining o‘zgarishi kuzatildi va tahlil qilindi. O‘yin texnologiyalarini qo‘llash jarayoni o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo‘lib, bunda ta‘lim mazmuni o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtirildi.

Jahon ta‘lim metodologiyasida o‘yin asosidagi o‘qitish “learning through play” tamoyili asosida rivojlangan bo‘lib, u o‘quvchilarning bilimni faol faoliyat jarayonida o‘zlashtirishini ta‘minlaydi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qilish qobiliyati va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbek milliy pedagogikasida esa boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘yin faoliyati o‘quvchilarning qiziqishi va faolligini oshiruvchi muhim metod sifatida qaraladi. Shu bois mazkur tadqiqotda didaktik o‘yinlarni tashkil etish jarayoni milliy ta‘lim an‘analari va zamonaviy interaktiv metodlar uyg‘unligida ishlab chiqildi.

Ona tili darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqot davomida quyidagi o‘yin texnologiyalaridan foydalanildi:

“So‘z zanjiri” didaktik o‘yini. Mazkur o‘yin o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish va nutqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. O‘yinni tashkil etish jarayonida o‘qituvchi biror so‘zni aytadi (Deylik, ot so‘z turkumini o‘tayotgan vaqtda otlarni aytish, sifat so‘z turkumi tushuntirilayotganda sifatdan namunalar aytish v.h) va keyingi o‘quvchi shu so‘zning oxirgi harfi bilan boshlanadigan yangi so‘z aytishi kerak bo‘ladi. O‘yin davomida o‘quvchilar faol ishtirok etib, lug‘at boyligini kengaytiradi hamda so‘zlarning talaffuzi va ma‘nosini chuqurroq anglay boshlaydi. Ushbu o‘yin kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish bilan birga, tezkor fikrlash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

“Gap tuzish” didaktik o‘yini. Bu o‘yin o‘quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlash hamda og‘zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi bir nechta so‘zlarni taqdim etadi va o‘quvchilardan ushbu so‘zlar asosida mazmunli gap tuzishni so‘raydi. Ba‘zi hollarda so‘zlar aralashtirilgan holda berilib, o‘quvchilar ularni mantiqiy tartibga keltirib gap hosil qiladi. O‘yinning bunday shakli o‘quvchilarda til birliklarini to‘g‘ri qo‘llash, gap tuzilishini anglash va fikrni izchil ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Topqir o‘quvchi” didaktik o‘yini. Mazkur o‘yin savol-javob asosida tashkil etilib, o‘quvchilarning tafakkurini faollashtirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi o‘tilgan mavzu bo‘yicha turli savollar beradi, o‘quvchilar esa tezkor va to‘g‘ri javob berishga harakat

qiladi. O‘yinning raqobat elementlari o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlarning samaradorligi bir necha pedagogik omillar orqali namoyon bo‘ladi. Birinchidan, o‘yin jarayonida o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, o‘yin asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning psixologik jihatdan erkin va qiziqarli muhitda ta‘lim olishiga imkon yaratadi. Uchinchidan, o‘yin elementlari o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirib, ularning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, didaktik o‘yinlarga asoslangan metodologik yondashuv boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etish imkonini beradi. O‘yin texnologiyalarining tizimli va maqsadga muvofiq qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi hamda til kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini didaktik o‘yinlar asosida tashkil etishning pedagogik samaradorligi Samarqand viloyati Urgut tumani 22-umumta‘lim maktabi boshlang‘ich sinflarida amaliy kuzatuv va tahlillar asosida o‘rganildi. O‘yin texnologiyalarini dars jarayoniga tizimli ravishda joriy etish o‘quvchilarning bilish faolligi, nutqiy rivoji hamda o‘quv motivatsiyasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, an‘anaviy dars shakllari bilan solishtirilganda o‘yin asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini sezilarli darajada faollashtirishi kuzatildi.

Kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, didaktik o‘yinlar qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilar o‘z fikrini erkin bayon qilishga ko‘proq intiladi, savol-javob jarayonlarida faolroq qatnashadi hamda berilgan topshiriqlarni bajarishda yuqori darajadagi qiziqish namoyon etadi. O‘yin elementlari dars muhitida ijobiy psixologik holatni yuzaga keltirib, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Natijada o‘quvchilarning nutqiy faolligi ortib, ular til birliklaridan to‘g‘ri va mazmunli foydalanishga harakat qiladi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning so‘z boyligi va gap tuzish ko‘nikmalarida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Didaktik o‘yinlar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar yangi so‘zlarni tezroq o‘zlashtirishi va ularni nutq jarayonida faol qo‘llashi aniqlangan. Bu holat, ayniqsa, “So‘z zanjiri” va “Gap tuzish” kabi o‘yinlar davomida yaqqol namoyon bo‘ldi. O‘quvchilar o‘yin jarayonida berilgan topshiriqlarni bajarish orqali nafaqat grammatik bilimlarini mustahkamladi, balki mantiqiy fikrlash va izchil nutq tuzish ko‘nikmalarini ham rivojlantirdi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning diqqatini uzoq vaqt davomida saqlab turish imkonini beradi. An‘anaviy dars jarayonida o‘quvchilarning e‘tibori tez chalg‘ishi mumkin bo‘lsa, o‘yin elementlari qo‘llanilganda dars jarayoni dinamik va qiziqarli tus oladi. Bu esa o‘quv materialining samarali o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi. Shu bilan

birga, o'yin texnologiyalari o'quvchilar o'rtasida hamkorlik muhitini shakllantirib, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Olingan natijalar didaktik o'yinlarning boshlang'ich ta'lim jarayonida muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi. Ular nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga, balki ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, ona tili darslarida didaktik o'yinlardan maqsadli foydalanish o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, fikrlash jarayonini faollashtirish hamda o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishda samarali metod sifatida namoyon bo'ladi.

Quyidagi jadval maqolada bayon etilgan metodologiya va kuzatuv natijalariga asoslanib, boshlang'ich sinf ona tili darslarida an'anaviy metod va didaktik o'yinlar asosidagi darslar samaradorligini taqqoslash uchun tuzilgan. Jadvalda o'quvchilarning faolligi, nutq rivoji va o'zlashtirish darajasi kabi ko'rsatkichlar foizlarda ifodalangan.

Ona tili darslarida an'anaviy va didaktik o'yinlar asosida tashkil etilgan darslar samaradorligi taqqoslanishi

№	Baholash mezon	An'anaviy darslar	Didaktik o'yinlar asosidagi darslar	Farq
1	O'quvchilarning dars jarayonidagi faol ishtiroki	54 %	82 %	+28 %
2	Yangi so'zlarni o'zlashtirish darajasi	58 %	85 %	+27 %
3	Og'zaki nutq faolligi	52 %	80 %	+28 %
4	Grammatik qoidalarni to'g'ri qo'llash	60 %	83 %	+23 %
5	Darsga qiziqish va motivatsiya	57 %	88 %	+31 %
6	Mustaqil fikrlash ko'nikmasi	49 %	78 %	+29 %
7	O'quv materialini uzoq muddat eslab qolish	55 %	81 %	+26 %

Jadval natijalari didaktik o'yinlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'quv faoliyatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Xususan, o'quvchilarning dars jarayonidagi faol ishtiroki 54 foizdan 82 foizgacha, ya'ni qariyb 28 foizga oshgani kuzatildi. Bu holat o'yin elementlari o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etishini ko'rsatadi. Shuningdek, yangi so'zlarni o'zlashtirish darajasi 27 foizga, og'zaki nutq faolligi esa 28 foizga ortgani aniqlangan. Bu esa didaktik o'yinlarning ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim metodik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Eng katta o'sish ko'rsatkichlaridan biri o'quv motivatsiyasi bilan bog'liq bo'lib, an'anaviy darslarda 57 foizni tashkil etgan ko'rsatkich o'yin asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda 88 foizga yetgan. Bu esa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va ijobiy munosabatining sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Umuman olganda, olingan

raqamli ko'rsatkichlar didaktik o'yinlar asosida tashkil etilgan darslar boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi va bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'lim bosqichida ona tili darslarini samarali tashkil etish o'quvchilarning nutqiy rivoji, tafakkur faoliyati va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida didaktik o'yinlardan maqsadli va tizimli foydalanish o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtiradi hamda ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini didaktik o'yinlar asosida tashkil etish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bois boshlang'ich ta'lim amaliyotida didaktik o'yinlardan keng foydalanish ona tili fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
2. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1969.
3. Ushinskiy K.D. Inson – tarbiya predmeti sifatida. – Moskva: Pedagogika, 1988.
4. G'aybullayev N. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
5. Mavlonova R. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.